



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

SUG'URTA FAOLIYATI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 15-iyunda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 27-avgustda
ma'qullangan

1-bob. Umumiyl qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi sug'urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat tibbiy sug'urtasi bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchiligidida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

alohida bo'linma — sug'urtalovchining (sug'urta brokerining) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi filiali;

sug'urta — muayyan voqeа (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar;

sug'urta badali — sug'urta mukofotining sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, miqdorlarda va shartlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan bir qismi;

sug'urta mukofoti — sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan sug'urta uchun to'lov;

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 942-moddasi.

sug'urta summasi — muayyan summa bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) sug'urta shartnomasi bo'yicha ushbu summa doirasida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

sug'urta tavakkalchiligi — taxmin qilinayotgan voqeа bo'lib, ushbu voqeа yuz bergan taqdirda sug'urta amalga oshiriladi;

sug'urta tarifi — sug'urta obyektini va sug'urta tavakkalchiligining xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadigan, shuningdek sug'urta shartlariga muvofiq sug'urta summasi birligidan olinadigan sug'urta mukofoti stavkasi;

sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) — sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir

sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi;

sug'urta turi — sug'urta tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta sug'urta klasslari doirasida ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan aniq sug'urta xizmati;

sug'urta faoliyati — sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani va qayta sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati;

sug'urta qiymati — agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini tuzish chog'ida taraflarning kelishuvi bilan aniqlanadigan, sug'urtaga topshiriladigan mol-mulkning qiymati;

franshiza — sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi bo'lib, sug'urta shartnomasiga muvofiq uning o'rni sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi;

qayta sug'urta — sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilingan sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash tavakkalchilagini boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan tuzilgan qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan to'liq yoki qisman sug'urta qilish;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasi*.

qayta sug'urtalovchi — boshqa sug'urta tashkilotidan qayta sug'urta qilish uchun sug'urta tavakkalchiliklarini qabul qiladigan sug'urta yoki qayta sug'urta tashkiloti;

qayta sug'urta shartnomasi — sug'urtalovchi o'zining sug'urta shartnomasiga doir barcha majburiyatlarini yoki ularning bir qismini qayta sug'urtalovchiga qaysi shartnomaga muvofiq o'tkazsa o'sha shartnoma.

4-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida norezidentlarning sug'urta faoliyati

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bozorining professional ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslarning muassisleri (ishtirokchilari) sifatida ish yuritishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxsning mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish faqat O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan sug'urta tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

5-modda. Transchegaraviy sug'urta va qayta sug'urta

Sug'urta tashkiloti tomonidan boshqa davlat hududida sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq sug'urta transchegaraviy sug'urtadir.

Sug'urta (qayta sug'urta) tashkiloti tomonidan o'zi qabul qilgan sug'urta tavakkalchiliklarini qayta sug'urtaga o'tkazish prudensial normativlarni hisoblash tartibiga doir talablar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan sug'urta tashkiloti nomidan sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi, bundan O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqayotgan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi mustasno.

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqayotgan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomalarini O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan sug'urta tashkiloti nomidan tuzish bo'yicha vositachilik faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining (bundan buyon matnda vakolatlari davlat organi deb yuritiladi) tegishli sug'urta klassi ko'rsatilgan litsenziyasiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan sug'urtalovchilar amalga oshirishi mumkin.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: *O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni*.

2-bob. Sug'urta faoliyatini tashkil etish

6-modda. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnomalar bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta summalarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiyligi sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'limgan boshqa sug'urta turlari).

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 915 va 921-moddalari.

Sug'urta tavakkalchiliklarining yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarining umumiyligi xususiyatlari muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslari) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi 80-sodan qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 6-ilovaning 12-bandi.

7-modda. Sug'urta shakllari

Sug'urta ixtiyoriy va majburiy sug'urta shakllarida amalga oshiriladi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasi.

Ixtiyoriy sug'urta ixtiyoriy sug'urtani amalga oshirishning umumiyligi shartlari va tartibini belgilovchi sug'urta shartnomasi hamda qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sug'urta shartnomasida sug'urta qoidalaring asosiy tushunchalarini aks ettiruvchi sug'urtaning muhim shartlari ko'rsatilishi kerak.

Majburiy sug'urtani amalga oshirish shartlari va tartibi majburiy sug'urtaning aniq turlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 922-moddasi.

8-modda. Sug'urtalovchining qayta sug'urtaga doir sug'urta faoliyati

O'zbekiston Respublikasi hududida faqat qayta sug'urtani amalga oshirishga doir faoliyat qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda litsenziyalanishi lozim.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi 80-sodan qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 6-ilova.

Sug'urta tashkiloti sug'urta faoliyatining turlari (klasslari) bo'yicha sug'urta tavakkalchiliklarini qayta sug'urtaga o'tkazishni va qabul qilishni sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun olingan litsenziyaga muvofiq, qonunchilikda belgilangan prudensial normativlarga rioya etgan holda, qayta sug'urtaga oid litsenziyani olmasdan turib amalga oshirishi mumkin.

Qayta sug'urtani qayta sug'urtaga oid litsenziya asosida faoliyatning alohida turi sifatida amalga oshiruvchi qayta sug'urta tashkiloti "hayotni sug'urta qilish" va "umumiyligi sug'urta" sohalarida sug'urtaning barcha klasslari bo'yicha qayta sug'urtani amalga oshirishga haqli.

Rezident bo'lgan sug'urtalovchilarning tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta tovonlariga (sug'urta to'lovlariga) doir majburiyatlarini (bunday majburiyatlarining bir qismini) qayta sug'urta qilish, o'zi ta'sis etilgan mamlakatning milliy qonunchiligiga muvofiq qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini olgan chet el sug'urta tashkilotlari, qayta sug'urta va (yoki) brokerlik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

9-modda. Birgalikdagi sug'urta faoliyati

Birgalikdagi sug'urta deganda bitta sug'urta shartnomasi bo'yicha ayni bir obyektni bir nechta sug'urtalovchi tomonidan birgalikda sug'urta qilish tushuniladi.

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar, naf oluvchilar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, bunday shartnomada ko'rsatilgan istalgan sug'urtalovchiga sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) to'g'risidagi talab bilan murojaat qilishga haqli.

Litsenziyasida tegishli sug'urta klassi ko'rsatilmagan sug'urta tashkilotining birgalikdagi sug'urta faoliyatida ishtirok etishi taqiqlanadi.

10-modda. Sug'urta (qayta sug'urta) sherikchiligi

Sug'urta (qayta sug'urta) sherikchiligi deganda sug'urtaning ayrim turlari yoki sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha sug'urta faoliyatini birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomasi asosida birgalikda amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar birlashmasi tushuniladi.

Sug'urta sherikchiligi o'z ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ular tomonidan miqdori bitta sug'urta tashkilotining o'z mablag'lаридан (kapitalidan) oshib ketishi mumkin bo'lган sug'urta tovonlari bo'yicha majburiyatлarni bajarish uchun tashkil etiladi hamda birgalikdagi sug'urta yoki qayta sug'urta prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatadi.

Qayta sug'urta sherikchiligi sherikchilik a'zolari tomonidan qayta sug'urtani sug'urta shartnomasi bo'yicha ularda qoldirilgan mablag'lаридан oshadigan qismi bo'yicha amalga oshirish orqali sherikchilik a'zolarining moliyaviy imkoniyatларини ko'paytirish uchun tashkil etiladi.

11-modda. Sug'urta obyektlari

Jismoniy shaxslarning ma'lum bir yoshgacha yoki muddatgacha yashashi yoxud jismoniy shaxslarning hayotida boshqa voqealar yuz berishi, shuningdek ularning o'limi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'iga zarar yetkazilishi, shuningdek baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida ularning o'limi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari hayotni sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin.

Tibbiy xizmatlar (tibbiy yordam, dori-darmonlar bilan ta'minlash) hamda boshqa xizmatlar tashkil etilishini va ko'rsatilishini talab etayotgan shaxs sog'lig'ining yoki holatining buzilishi oqibatida bunday xizmatlarni tashkil etish va ko'rsatish uchun, shuningdek shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lган tahdidlar darajasini kamaytiradigan va (yoki) ularni bartaraf etadigan profilaktika tadbirларини ottakazish uchun haq to'lash bilan bog'liq mulkiy manfaatlari tibbiy sug'urta obyektlari bo'lishi mumkin.

Mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kamomadi yoki shikastlanishi tavakkalchiligi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari mol-mulkni sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 917-moddasi.

Sug'urta qildiruvchining (sug'urtalangan shaxsning) daromadlar ololmaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning kutilmagan xarajatlari yuzaga kelishi tavakkalchiligi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari mulkiy sug'urtada moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin.

Tadbirkorning kontragentlari tomonidan o'z majburiyatları bajarilmaganligi sababli tadbirkorlik faoliyatidan zararlar yuzaga kelishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lмаган holatlarga ko'ra ushbu faoliyatning shartlari o'zgarishi tavakkalchiligi, shu jumladan kutilayotgan daromadlarni ololmaslik tavakkalchiligi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 920-moddasi.

Quyidagilar bilan bog'liq bo'lган mulkiy manfaatlari fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin:

jismoniy shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga, yuridik shaxslarning, davlatning mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi tavakkalchiligi;

shartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi tavakkalchiligi.

12-modda. Sug'urta faoliyatining subyektlari

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilar sug'urta faoliyatining subyektlaridir.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilar, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

■ LexUZ sharhi

Qoshimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-soni qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida"gi Nizom.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilaridir.

13-modda. Sug'urtalovchi

Tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, bundan ushbu Qonunning **14-moddasida** nazarda tutilgan hollar mustasno.

14-modda. Sug'urtalovchining huquq va majburiyatları

Sug'urtalovchi:

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini tuzishga;

o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilishga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urta qilishga;

investitsiya faoliyatini amalga oshirishga;

qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishga. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;

sug'urta (qayta sug'urta) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishga;

sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) ishlab chiqishga va tasdiqlashga;

sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborotni va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlardan, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlaridan hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rashga va olishga;

sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzishga;

qonunchilikda va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashni rad etishga, sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilishga;

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishga, sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta shartnomasi talablari va shartlarining bajarilishi ustidan nazorat olib borishga;

chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatishga;

ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida o'z ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilishga yoki ijara berishga;

O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va xorijiy reyting tashkilotlaridan axborot olishga;

o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etishga haqli.

Sug'urtalovchi qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchi:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga riosa etishi;

sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini qonunchilik talablariga muvofiq ta'minlashi;

o'zi vakolat bergen sug'urta agentlarining reyestrini yuritishi;

qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;

sug'urta hodisasi yuz bergen taqdirda, qonunchilikda yoki sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni va sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) to'lovlarini amalga oshirishi;

firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan eri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, bu haqda vakolatli davlat organini va sug'urta qildiruvchilarni ushbu Qonunda belgilangan tartibda xabardor qilishi;

sug'urta zaxiralarni qonunchilikda belgilanadigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1882, 15.12.2008-y.).

har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi;

vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalg etishi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 7-apreldagi 42-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Aktuar xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomning 3-band (ro'yxat raqami 1975, 26.06.2009-y.).

vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014-yil 17-fevraldagi 9-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Sug'urtalovchilar tomonidan yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2564, 28.02.2014-y.).

buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'urtalovchining zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

15-modda. Sug'urta brokeri

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs sug'urta brokeridir.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, bundan qayta sug'urta brokerining faoliyati mustasno.

Sug'urta brokeri sug'urtalovchining ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta brokeri o'zi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi.

16-modda. Qayta sug'urta brokeri

O'z nomidan va qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi sifatida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeridir.

Qayta sug'urta brokeri sug'urtalovchining ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etishga haqli emas.

Qayta sug'urta brokeri o'zi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida xizmatlar ko'rsatadi.

17-modda. Sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlari

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtaning (qayta sug'urtaning) har qanday turi bo'yicha vositachilik faoliyatini vakolatlari doirasida amalga oshirish;

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini tanlash;

sug'urtalovchidan litsenziyaning mayjudligi, ustav fondining, sug'urta zaxiralarining hamda qabul qilingan majburiyatlarning miqdorlari to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatliliği va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari qonunchilikka hamda o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rivoja etishi;

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasini tuzish va bajarish bo'yicha to'liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so'rovlariaga ko'ra taqdim etishi;

mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) joylashgan eri o'zgargan taqdirda, bu haqda vakolatli davlat organini hamda sug'urtalovchilarini xabardor qilishi;

qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining zimmasida qonunchilikka hamda o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

18-modda. Sug'urta agenti

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs sug'urta agentidir.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari va xodimlari sug'urta agenti sifatida ish yuritishi mumkin emas.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchining reyestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarga:

sug'urta agentining tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'q qo'yilmaydi.

Jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta agenti o'z nomiga, yaqin qarindoshlari (ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari, eri, xotini, farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobosi, buvisi, nevaralari, shuningdek erining, xotinining ota-onasi, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga hamda bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish yuritishga haqli emas.

19-modda. Sug'urta agentining huquq va majburiyatlar

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtanening har qanday turi, shu jumladan majburiy sug'urta turlari bo'yicha ham vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligin baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining, sug'urta zaxiralarining hamda qabul qilingan majburiyatlarning miqdorlari to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligiga va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida sug'urtalovchidan ma'lumotlar olish;

sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida hamma uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi haqida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioxat etishi;

sug'urta shartnomasini tuzish va sug'urta tovonini (sug'urta summasini) to'lash chog'ida hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining, sug'urta zaxiralarining hamda qabul qilingan majburiyatlarning miqdorlari to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish chog'ida sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligin pasaytirishga va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

sug'urta qildiruvchilarining so'roviga ko'ra ularni sug'urtanening amaldagi shartlari to'g'risida xabardor qilishi;

sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalarini hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

sug'urta hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

sug'urta shartnomasining amal qilish muddati ichida tavakkalchilik shartlari jiddiy ravishda o'zgarganligiga taalluqli axborot sug'urtalovchi tomonidan o'z vaqtida olinishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) to'lanishini tashkil etishi shart.

Sug'urta agentining zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

20-modda. Adjaster

Adjaster sug'urtalovchining, sug'urta qildiruvchining va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

sug'urta hodisasi yuz beraganidan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;
sug'urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda — sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasini va zarar miqdorini aniqlash;
to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) summasini aniqlash;
sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini o'tkazishga;
sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
sug'urtalovchilarning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtirok etishga;
sug'urta qildiruvchining vakili sifatida sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) summasini olishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, sug'urtalovchi undan zararlarning o'rnnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

21-modda. Adjasterning huquq va majburiyatları

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

adjaster xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini, sug'urta qildiruvchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

sug'urta voqeasini (sug'urta hodisasini) o'rganish uchun sug'urtalovchidan, sug'urta qildiruvchidan va boshqa buyurtmachilardan zarur axborotni so'rash hamda olish;

sug'urta hodisasi yuz beraganidan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

o'zi sug'urta obyektini sirtdan (zarur bo'lganda — texnika vositalarini qo'llagan holda) ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish;

sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborotni va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlardan, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlardan hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish.

Adjaster qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Adjaster:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;
sug'urta hujjatlarining but saqlanishini ta'minlashi;
mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;
sug'urta hodisasiga taalluqli ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish uchun choralar ko'rishi;
qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.
Adjasterning zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

22-modda. Aktuar tashkilot va aktuariy

Aktuar tashkilot quyidagi larni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir:

sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitoblarini amalga oshirishni, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar yetkazilishining takroriyligini va uning oqibatlarining og'irlilik darajasini belgilashni;

sug'urtalovchining zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilishni, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqishni;

sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga imkon beradigan tarzda aniqlashni;

sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar kapitalining yetarlilik ko'rsatkichini hisoblashni, shuningdek aktivlar sifatini ta'minlash mexanizmlarini belgilashni;

sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslashni va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilishni;

sug'urtaning (qayta sug'urtaning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilashni;

sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholashni;

sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urtaning) har xil turlari bo'yicha rejulashtirishni;

aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishni;

sug'urta bilan bog'liq boshqa aktuar xizmatlarini ko'rsatishni.

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to'lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

Aktuariy qonunchilikda belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 305-sonli "Aktuariy malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan Ayrim turdag'i malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamentiga 11-ilova.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

Aktuariy:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini o'tkazishga;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtiroy etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyatining natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Aktuariyning hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

23-modda. Aktuar tashkilotning huquq va majburiyatları

Aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

aktuar xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash; aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot sug'urtalovchi va boshqa buyurtmachilar tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

boshqa aktuar tashkilotlarni va o'zga mutaxassislarini aktuar xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb qilish.

Aktuar tashkilot qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Aktuar tashkilot:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

aktuar xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchiliklari faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi;

qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Aktuar tashkilotning zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Aktuar xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1975, 26.06.2009-y.).

24-modda. Sug'urta syurveyeri

Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta (qayta sug'urta) obyektni ko'zdan kechirish va tekshirish;

sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

tekshirilayotgan sug'urta obyekti bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli bo'lgan mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi yoki sug'urta qildiruvchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug'urta syurveyeri:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini o'tkazishga;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug'urtalovchilarning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etilib, sug'urtalovchi yoki sug'urta qildiruvchi bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasini tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

Sug'urta syurveyerining hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

25-modda. Sug'urta syurveyerining huquq va majburiyatları

Sug'urta syurveyeri:

xizmatlar ko'rsatiladigan sug'urtalovchini yoki sug'urta qildiruvchini erkin tanlashga;

sug'urta obyektni o'rganish uchun sug'urta qildiruvchidan yoki sug'urtalovchidan zarur axborotni so'rashga va olishga;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sug'urta obyektlariga daxildor bo'lgan boshqa tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni so'rashga va olishga haqli.

Sug'urta syurveyseri qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta syurveyseri:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga riosa etishi;

sug'urta ekspertizasini o'tkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning but saqlanishini ta'minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Sug'urta syurveyerining zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

26-modda. Assistans

Assistans sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlari sug'urta qildiruvchilarining (sug'urtalangan shaxslarning) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi.

Assistans:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini o'tkazishga;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug'urtalovchilarining ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ishtirok etishga haqli emas.

27-modda. Assistansning huquq va majburiyatları

Assistans quydagi huquqlarga ega:

assistans xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha sug'urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnomaga tuzish;

assistans xizmatlari ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan barcha axborot sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb qilish.

Assistans qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Assistans:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga riosa etishi;

sug'urta qildiruvchilardan (sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta voqealari (sug'urta hodisalar) to'g'risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) sug'urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug'urta polisi asosida zarur yordam ko'rsatishi;

sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish va tartibga solish choralarini ko'rishi;

qonunchilikda belgilangan axborotni vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Assistansning zimmasida qonunchilikka va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

28-modda. Sug'urta bozori professional ishtirokchilarining uyushmalari

Agar sug'urta bozori professional ishtirokchilarining uyushmalarini va boshqa birlashmalarini tashkil etish qonunchilik talablariga zid kelmasa, sug'urta bozorining professional ishtirokchilari o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda birgalikdagi tadbirlarni (choralarni) amalga oshirish maqsadida uyushmalar va boshqa birlashmalar tashkil etishi mumkin.

3-bob. Sug'urta shartnomasi va qoidalari

29-modda. Sug'urta shartnomasi

Sug'urta qilish sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasida tuziladigan sug'urta shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida yozma yoki elektron shaklda tuzilgan bitim bo'lib, sug'urta qildiruvchi unga muvofiq sug'urta mukofotini (sug'urta badalini) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda, muddatlarda va hajmda to'laydi hamda sug'urta shartnomasida yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi, sug'urtalovchi esa sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muayyan voqeа (sug'urta hodisasi) yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta shartnomalarida franchiza nazarda tutilishi mumkin.

Franchiza ham sug'urta summasining foizlarida, ham muayyan summada belgilanishi mumkin hamda shartli va shartsiz franchizaga bo'linadi. Sug'urta shartnomasida franchizaning boshqa turlari nazarda tutilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasining yozma yoki elektron shaklini tuzishga doir talablarga riosa etmaslik ushbu shartnomaning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 943-moddasi.

Vakolati davlat organi sug'urta shartnomasi shartlariga qo'yiladigan eng kam talablarni belgilash huquqiga ega.

30-modda. Sug'urta qoidalari

Sug'urta qoidalari (bundan xalqaro sug'urta tizimlari doirasida qabul qilinadigan sug'urta qoidalari mustasno) sug'urtalovchi yoki sug'urtalovchilarning birlashmasi tomonidan qabul qilinadi hamda tasdiqlanadi va sug'urtanening asosiy qoidalari o'z ichiga olishi kerak.

Sug'urtanening asosiy qoidalari quyidagi tushunchalarni o'z ichiga olishi kerak:

sug'urta subyektlari;

sug'urta obyektlari;

sug'urta hodisalari;

sug'urta tavakkalchiliklari;

sug'urta summasi, sug'urta tarifi va sug'urta mukofotini (sug'urta badallarini) aniqlash tartibi;

sug'urta shartnomalarini tuzish, bajarish va tugatish tartibi;

taraflarning huquq va majburiyatları;

zararlarning yoki ziyonning miqdorini aniqlash tartibi;

sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) aniqlash tartibi;

sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) amalga oshirish muddatlari, shuningdek sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) rad etish asoslарining batafsил ro'yxati va boshqa qoidalari.

31-modda. Sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasida elektron shakldagi axborot almashinuvining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi) tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish, muddatidan oldin tugatish uchun, sug'urta qoidalariда nazarda tutilgan hollarda va tartibda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) olish uchun elektron shakldagi axborotni (sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish, muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi arizani, sug'urta hodisasi yuz bergenligi haqidagi bildirishnomani, sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash to'g'risidagi arizani va (yoki) boshqa hujjatlarni) yaratish hamda jo'natish sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'iadi rasmiyl veb-saytidan, shuningdek mobil

ilovalardan, elektron pochtadan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytidan ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasida elektron shakldagi axborot almashinuvini ta'minlaydigan axborot tizimi sifatida foydalanilishi mumkin.

Ushbu moddada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish uchun sug'urtalovchining rasmiy veb-saytiga kirishni sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi) identifikasiyalash va autentifikatsiyalash tizimidan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin.

Sug'urtani elektron shaklda amalga oshirish chog'ida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan yoxud elektron raqamli imzosiz taqdim etilgan elektron shakldagi axborot sug'urta shartnomasi, shu jumladan sug'urtalovchining elektron raqamli imzosi bilan imzolangan qaysi sug'urta shartnomasi (polisi) shartlariga sug'urta qildiruvchi ofertani (sug'urta shartnomasi tuzish taklifini) qabul qilish va sug'urta mukofoti to'lash orqali o'z rozilagini bergan bo'lsa, o'sha sug'urta shartnomasi (polisi) shartlariga muvofiq qog'ozdagi hujjatga teng hujjat deb e'tirof etiladi.

Ixtiyoriy sug'urtani amalga oshirish chog'ida sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi) va sug'urtalovchi o'rtasida elektron hujjatlardan foydalanishga doir talablar hamda elektron shaklda axborot almashish tartibi sug'urta qoidalarida va (yoki) mazkur shaxslar o'rtasidagi boshqa kelishuvda belgilanadi.

32-modda. Sug'urta shartnomasi ishtirokchilar

Sug'urtalovchilar, sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar, naf oluvchilar va manfaatdor shaxslar sug'urta shartnomasining ishtirokchilari sifatida ish yuritishi mumkin.

Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzuvchi va sug'urta mukofotini (sug'urta badallarini) to'lovchi yuridik shaxs yoki muomalaga layoqatli jismoniy shaxs sug'urta qildiruvchidir.

Sug'urta qildiruvchilar uchinchi shaxslarni (sug'urtalangan shaxslarni) sug'urta qilish to'g'risida faqat ularning roziligi mavjud bo'lgan taqdirdagina sug'urtalovchilar bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sug'urtada ishtirok etayotgan, mulkiy manfaatlari sug'urta himoyasining obyekti bo'lgan jismoniy shaxs sug'urtalangan shaxsdir.

Sug'urtalangan shaxs, agar o'ziga nisbatan sug'urta shartnomasini tuzsa va hisoblangan sug'urta mukofotini to'lasa, sug'urta qildiruvchi ham bo'lishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs) tomonidan sug'urta tovonini yoki sug'urta to'lovini oluvchi sifatida tayinlangan jismoniy yoki yuridik shaxs naf oluvchidir.

Naf oluvchi sug'urta shartnomasi haqidagi axborotni sug'urta qildiruvchidan, sug'urtalangan shaxsdan yoki sug'urtalovchidan olishga haqli.

33-modda. Sug'urta mukofoti

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotining miqdorini belgilashda o'zi ishlab chiqqan sug'urta tariflarini qo'llashga haqli bo'lib, bu tariflar sug'urta obyekti va sug'urta tavakkalchiligining xususiyati hisobga olingan holda sug'urta summasi birligidan undiriladigan mukofotni belgilaydi.

Sug'urtaning ayrim turlari bo'yicha sug'urta mukofotining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi tomonidan belgilangan sug'urta tariflariga muvofiq aniqlanadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi 177-son "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-sun "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-sentabrdagi 266-sun "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 20-dekabrdagi 532-sun "Obyektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qarori.

34-modda. Sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan shaxsga faqat sug'urta hodisasi yuz bergen taqdirda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashi shart.

Sug'urtalovchi quyidagi larda haqli emas:

agar u sug'urta shartnomasida yoki qonunda ko'rsatib o'tilgan sug'urta hodisasi yuz bergenligi to'g'risidagi dalillarni olgan bo'lsa, sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashni rad etishga;

agar sug'urta hodisasining yuz berishi sug'urta qildiruvchining (sug'urtalangan shaxsning va (yoki) naf oluvchining) sug'urta hodisasi yuz berishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari natijasida kelib chiqqan bo'lsa, sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashga. Bunday holda sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotini qaytarmaydi.

Taraflarning kelishuviga ko'ra, sug'urtalovchi zararlarni to'liq hisob-kitob qilguniga qadar sug'urta tovonining bir qismini taraflardan birortasi ham nizolashmaydigan miqdorda to'lashi mumkin.

4-bob. Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining), sug'urta brokerining hamda ularning alohida bo'linmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan talablar

35-modda. Umumiy talablar

Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning), sug'urta brokerlarining hamda ular alohida bo'linmalarining rahbarlari va bosh buxgalterlari, basharti ular ushbu Qonunda belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lsa, tayinlanadi.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) va sug'urta brokeri nomzodning ushbu Qonunda belgilangan malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni nomzod vakolatli davlat organiga sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining, shuningdek ularning alohida bo'linmalarining rahbari yoki bosh buxgalteri lavozimiga tayinlanguniga qadar taqdim etishi shart.

36-modda. Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablari

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining rahbari quyidagi malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak:

oliy ma'lumotga ega bo'lish;

iqtisodiy, moliyaviy, yuridik ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislar uchun sug'urta sohasida kamida uch yillik ish stajining (sug'urta agenti sifatidagi, shuningdek yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodim lavozimlaridagi ish stajini hisobga olmagan holda) mavjudligi;

boshqa ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislar uchun sug'urta sohasida kamida yetti yillik ish stajining (sug'urta agenti sifatidagi, shuningdek yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodim lavozimlaridagi ish stajini hisobga olmagan holda) mavjudligi.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining bosh buxgalteri "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunida](#) belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

37-modda. Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining alohida bo'linmasi rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablari

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining alohida bo'linmasi rahbari quyidagi malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak:

oliy ma'lumotga ega bo'lish;

sug'urta sohasida kamida bir yillik ish stajining (sug'urta agenti sifatidagi, shuningdek yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodim lavozimlaridagi ish stajini hisobga olmagan holda) mavjudligi.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining alohida bo'linmasi bosh buxgalteri quyidagi malaka talablariga muvofiq bo'lishi kerak:

oliy (buxgalterlik, auditorlik, moliyaviy, iqtisodiy) ma'lumotga ega bo'lish;

buxgalter sifatida kamida bir yillik ish stajining mavjudligi.

38-modda. Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining), sug'urta brokerining hamda ularning alohida bo'linmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan qo'shimcha talablar

Rahbar (bosh buxgalter) tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar yuridik shaxsni bankrotlikka yoki uni tugatish to'g'risida sud tomonidan qaror chiqarilishiga olib kelganligi haqidagi faktlar mavjud bo'lgan taqdirda, uni bankrot deb topilgan yoki sud tomonidan uni tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan paytga qadar bir yil davomida yuridik shaxsning rahbari (bosh buxgalteri) bo'lgan shaxs sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining), sug'urta brokerining hamda ularning alohida bo'linmalarining rahbari (bosh buxgalteri) etib tayinlanishi mumkin emas.

5-bob. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularning faoliyatini litsenziyalash, ularni qayta tashkil etish va tugatish

39-modda. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etiladi.

40-modda. Sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) ustav fondi (ustav kapitali)

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori qonunchilikda belgilanadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagи PQ-4412-son qarori bilan tasdiqlangan Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) uchun ustav kapitalining minimal miqdorlari.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav fondi (ustav kapitali) sug'urta tashkilotining muassislari tomonidan kiritilgan pul mablag'lardan tashkil topadi hamda milliy valyutada ifodalanadi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori litsenziya olish to'g'risida ariza beriladigan paytga qadar sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ta'sischilari tomonidan shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan sug'urtaning boshqa tarmoqlaridagi sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) ustav fondida (ustav kapitalida) o'zaro ishtirokini cheklash shartlarida ishtirok etish hollari mustasno.

41-modda. Sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining firma nomiga doir talablar

Sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining firma nomida ilgari tashkil etilgan sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining firma nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilardan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining filiallari nomlari mustasno.

Firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan eri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) va sug'urta brokeri ommaviy axborot vositalari orqali bu haqda sug'urta qildiruvchilarni xabardor qilishi, o'zi bajarayotgan, bir yildan ortiq muddatga mo'ljallangan shartnomalar bo'yicha esa yozma shaklda yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron hujjat shaklida xabardor qilishi shart.

"Sug'urta" atamasidan yoki bu atama qo'shib yasalgan so'z birikmalaridan faqat sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan firma nomida yoki tovar belgisida (xizmat ko'rsatish belgisida) foydalilanildi.

Sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar "sug'urta" atamasini o'z firma nomiga kiritishi shart.

42-modda. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash

Sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan

litsenziyalardan asosida amalga oshiriladi.

■ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi 80-sodan qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 6-ilova.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoki umumiy sug'urta sohasida yoxud faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi.

Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, bundan umumiy sug'urta sohasining qonunchilikda belgilangan ayrim turlari (klasslari) mustasno. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Faqat qayta sug'urta bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchi sug'urta shartnomalarini tuzishga haqli emas.

■ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi 80-sodan qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 6-ilovaning 12-bandi.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni mo'ljallayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

43-modda. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turishning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish uning yangi sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini tuzishini, shu jumladan amaldagi sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini uzaytirishni taqiqlashga sabab bo'ladi. Litsenziysi to'xtatib turilgan sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ilgari tuzilgan sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishi shart.

44-modda. Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) litsenziyasining amal qilishini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida vakolatli davlat organi sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishi shart.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ilgari faoliyat ko'rsatgan boshqaruva organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va vakolatli davlat organi tomonidan tayinlanadigan muvaqqat ma'muriyatga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat o'z faoliyatini sud qaror chiqarguniga qadar bo'lgan davrda amalga oshiradi.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) muvaqqat ma'muriyatining hisoboti vakolatli davlat organiga va sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) tugatish to'g'risida vakolatli davlat organining arizasi yuborilgan sudga taqdim etiladi.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, bundan sug'urtalovchining boshqaruva xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga (qayta sug'urtalovchiga) kelib tushayotgan pullarni hisobga olish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash bilan bog'liq operatsiyalar mustasno.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) muvaqqat ma'muriyatining ish tartibi vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) arizasiga binoan litsenziyaning amal qilishini tugatish hollariga nisbatan, shuningdek sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ta'sischilarining yoxud ta'sis hujjalarda shunga vakolat berilgan ushbu sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqaruva organining qaroriga ko'ra qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda tatbiq etilmaydi.

45-modda. Sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish vakolatli davlat organining ruxsati bilan amalga

oshirilishi mumkin.

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

muassislar (ishtirokchilar) yoki qayta tashkil etish to'g'risidagi ta'sis hujjatlarida qayta tashkil etish vakolati berilgan sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqaruv organining qarorini;

tashkil etilayotgan sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) balansini va uning faoliyatining moliyaviy natijalari prognozini;

qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasini (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etishni amalga oshirishga doir ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) yozma ravishda yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron hujjat shaklida xabardor qilishi shart.

Vakolatli davlat organi sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etish uchun ruxsatnoma berishni quyidagi hollarda rad etishga haqli, agar:

sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etish natijasida ularning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo'lsa;

sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) qayta tashkil etilishi sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etish uchun ruxsatnoma berilishini so'rab taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa yoki bu hujjatlar qonunchilikka muvofiq bo'lmasa;

sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etish qonunchilikka zid bo'lsa.

Sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etishni amalga oshirish uchun berilgan arizani takroran ko'rib chiqishda sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) qayta tashkil etishni ushbu qayta tashkil etishni amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha amalga oshirishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchi (sug'urtalovchilar) (qayta sug'urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangidan tuzilgan sug'urtalovchilarga (qayta sug'urtalovchilarga) litsenziyalar berish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan vaqt uchun va yangidan tuzilgan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) tomonidan litsenziya olinadigan paytga qadar ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emas, bundan ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha ushbu sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) o'z zimmasiga olgan, huquqiy vorislik tartibida ularning o'ziga o'tgan majburiyatlarni bajarish hollari mustasno.

LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldaggi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomga 6-ilovaning 12-bandisi.

Agar qo'shib olish natijasida litsenziya shartlari o'zgarmasa, qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganda o'ziga boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) qo'shilgan sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

O'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) litsenziysi qayta rasmiylashtiriladi.

Qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etilganda litsenziyani qayta rasmiylashtirishga qayta tashkil etilayotgan sug'urtalovchilarda (qayta sug'urtalovchilarda) yangidan vujudga kelgan sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

46-modda. Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablarini qanoatlantirish navbatি

Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug'urtalovchining asosiy vazifalarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to'langanidan keyin quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda — hayotni sug'urta qilish sohasidagi majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilarining talablari;

ikkinchi navbatda — sug'urta qildiruvchilarining boshqa majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;

uchinchi navbatda — boshqa sug'urta qildiruvchilarining (naf oluvchilarining) talablari;

to'rtinchi navbatda — budgetga, budgetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlariga doir talablari. Ko'rsatilgan talablari to'liq qanoatlantirilganidan keyin ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablari hamda jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash bo'yicha talablari qanoatlantiriladi;

beshinchi navbatda — sug'urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

6-bob. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

47-modda. Vakolatli davlat organi

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi:

bajarilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlarning jami miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) to'lovga qobiliyatligiga doir axborotni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarining to'lov qobiliyati to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1806, 12.05.2008-y.).

sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tomonidan sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka riya etilishini, to'lovga qobiliyatilikning belgilangan normativlari va ularning moliyaviy barqarorligining boshqa talablari ta'minlanishini nazorat qiladi;

sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

sug'urtalovchilarining (qayta sug'urtalovchilarining) sug'urta zaxiralari mablag'larini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek bunday mablag'larning hisobini yuritish va ular bo'yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: "Sug'urtalovchilarining sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1882, 15.12.2008-y.).

sug'urta zaxiralari mablag'larining eng kam miqdorini belgilaydi;

sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va ular tomonidan e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek uni taqdim etish hamda e'lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi 37-soni "Sug'urtalovchilarining moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1945, 20.04.2009-y.) va "Sug'urtalovchilar tomonidan yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 2564, 28.02.2014-y.).

qonunchilikka muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshirishni amalga oshiradi va ularga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida, shu jumladan sug'urta xizmatlari iste'molchilarini huquqlarining buzilishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish haqida ijro qilinishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik, shu jumladan belgilangan iqtisodiy normativlar buzilganligi uchun sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav fondi (ustav kapitali) eng kam miqdorining 0,1 foizigacha miqdorida, belgilangan tartibda jarima soladi;

sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq yoki ayrim sug'urta klasslariga nisbatan to'xtatib turadi, shuningdek ularning faoliyatini tugatish to'g'risida sudga murojaat qiladi;

■ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldaggi 80-son qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomning 40 – 52-bandlari.

jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik buzilganligi aniqlangan taqdirda, sug'urtalovchilarga (qayta sug'urtalovchilarga) hamda sug'urta vositachilariga nisbatan qonunchilikka muvofiq choralar va sanksiyalar qo'llaydi;

■ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 179³-moddasi, Jinoyat kodeksining 155³, 243-moddalari.

sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili davomidagi faoliyati haqidagi statistik ma'lumotlarni rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida e'lon qiladi;

sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi;

aktuar xizmatlari ko'rsatish tartibini belgilaydi;

■ LexUZ sharhi

Qarang: "Aktuar xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1975, 26.06.2009-y.).

aktuariy malaka sertifikatini olish uchun o'quv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihonini o'tkazadi;

belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega bo'lgan aktuariylar reyestri ni yuritadi;

■ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-noyabrdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan Ayrim turdag'i malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamentiga 11-ilova.

sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qonunchilikda belgilangan axborotni so'rab oladi;

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

■ LexUZ sharhi

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1060-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi to'g'risida nizomga qarang.

Vakolatli davlat organi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida (ustav kapitalida) hamda boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emas.

48-modda. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) tomonidan prudensial normativlarga rioya etilishi

Sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda sug'urta xizmatlari iste'molchilarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) belgilangan prudensial normativlarga rioya etishi shart, ushbu normativlarni hisoblab chiqarish tartibi va yo'l qo'yiladigan qiymatlari vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Prudensial normativlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdorini;
to'lovga qobiliyatlilik marjasining yetarlilik normativini;
sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilar) alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlari normativini;
sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish bo'yicha normativni;
vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan boshqa prudensial normativlarni.

Prudensial normativlarga kelgusidagi o'zgartishlar ushbu o'zgartishlar amalga kiritilishidan kamida bir oy oldin vakolatli davlat organi tomonidan rasmiy ravishda e'lon qilinadi.

49-modda. Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilar) sug'urta zaxiralari

Sug'urta majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda milliy valyutada ham, chet el valyutasida ham to'langan sug'urta mukofotlaridan sug'urta zaxiralarini shakllantiradi va joylashtiradi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1882, 15.12.2008-y.).

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) o'z sug'urta zaxiralariga muvofiq bo'lgan aktivlari olib qo'yilmaydi.

50-modda. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlari

Davlat sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilar) mulkiy huquqlariga va boshqa huquqlariga hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini va ularning himoya qilinishini, sug'urta faoliyatini amalga oshirishdagi erkin raqobat sharoitlarini kafolatlaydi.

Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilar) faoliyatiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan aralashish, agar bu sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) faoliyati ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari bilan bog'liq bo'lmasa, taqiqlanadi.

51-modda. Ichki nazoratga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar

Sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlari vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan ichki nazoratga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablarga rioya etishi shart. Vakolatli davlat organining talablari sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turining tizimli ahamiyatini, o'ziga xos xususiyatini, ko'lami va murakkabligini inobatga oladi.

Vakolatli davlat organining ichki nazoratga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablari jumlasiga quyidagilar kiradi:

prudensial talablar uchun moliyavij, nazoratga oid hisobotlarning va boshqa hisobotlarning to'liqligini, ishonchlilagini hamda o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash;

muhim ahamiyatga molik tavakkalchiliklarni aniqlash va boshqarish, stress-testdan o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan siyosatning, shuningdek muhim ahamiyatga molik tavakkalchiliklarga hamda kapitalga doir hisobotlar tizimining mavjudligi;

sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) uchun muhim ahamiyatga molik tavakkalchiliklarni boshqarishga va ularning samaradorligini baholashga doir siyosatning izchil amalga oshirilishi hamda unga rioya etilishi;

ichki hujjalarda belgilangan tavakkalchiliklarning va kapitalning cheklangan miqdorlariga rioya etilishi, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha qo'llayotgan tartib-taomillar samaradorligi ustidan kuzatuv kengashi tomonidan nazoratni amalga oshirish.

52-modda. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'yilmasligi

Sug'urta bozorida raqobatni cheklashga yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilarining va

boshqa shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga o'z uyushmalari va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopollashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish uchun foydalanish taqilanganadi.

7-bob. Vakolatli davlat organi tomonidan qo'llaniladigan choralar va sanksiyalar

53-modda. Choralar va sanksiyalarning qo'llanilishi

Vakolatli davlat organi sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotiga, sug'urta brokeriga, ilgari ularga nazorat tarzida javob qaytarish chora-tadbirlari qo'llanilganidan qat'i nazar, quyidagi sanksiyalarni qo'llashga haqli:

litsenziyaning amal qilishini o'n kungacha muddatga to'xtatib turishga;

agar litsenziat litsenziya berishga doir qaror qabul qilinganligi haqida bildirishnomasi yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida vakolatli davlat organiga litsenziya bergenlik uchun davlat bojini to'lamagan bo'lsa, litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishga;

sug'urta portfeliniboshqa sug'urta tashkilotlariga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish tarzidagi sanksiyani qo'llashning maqsadga muvofiqligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

tavakkalchilikning darajasi, qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning xususiyati hamda ularning oqibatlari;

yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning ko'lami hamda ahamiyati va ularning oqibatlari;

qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning muntazamligi (ikki va undan ko'p marta) hamda davomiyligi;

yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning moliyaviy holatga ta'siri;

aniqlangan qoidabuzarliklar va (yoki) kamchiliklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan sabablar;

sug'urta (qayta sug'urta) tashkiloti va sug'urta brokeri tomonidan faoliyatda aniqlangan kamchiliklarni, tavakkalchiliklarni yoki qoidabuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan mustaqil choralar ko'rish.

54-modda. Qo'pol qoidabuzarlik

Litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo'ladigan litsenziya talablari va shartlarining bir marta qo'pol ravishda buzilishi jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) uchun:

litsenziat uchun qonunchilikda taqilangan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish;

sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan maxfiy axborotni sug'urta qildiruvchining ruxsatisiz oshkor qilish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

b) sug'urta brokerlari uchun:

mijoz uchun manfaatli emasligi oldindan ma'lum bo'lgan sug'urta shartnomasini tuzish va bajarish;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan maxfiy axborotni mijozning ruxsatisiz oshkor qilish, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

8-bob. Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) to'lovga qobiliyatliliginibaholash

55-modda. Sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) to'lovga qobiliyatliliği kafolatlari

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan va jami majburiyatlarning yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdoridan ortiq majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi mumkin emas, bundan ularning ushbu majburiyatlarni bajarish qobiliyati to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlariga va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablariga muvofiq qayta sug'urta qilingan hollar mustasno.

56-modda. Aktuar xulosa

Sug'urta zaxiralari bo'yicha aktuar xulosa sug'urta (qayta sug'urta) tashkiloti yillik moliyaviy hisobotlarining ajralmas qismi bo'lib, vakolatli davlat organiga taqdim etilishi lozim.

Aktuar xulosani taqdim etishning mazmuniga va tartibiga qo'yiladigan talablar vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

57-modda. Zararlilikni tavsiflovchi koeffitsiyentlar

Sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlari sug'urtaning barcha yoki ayrim turlarini (klasslarini) amalga oshirishda o'z faoliyatini tahlil qilish maqsadida zararni tavsiflovchi koeffitsiyentlar (zararlilik koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, birlashtirilgan koeffitsiyent) hisob-kitobini amalga oshiradi.

Zararlilikni tavsiflovchi koeffitsiyentlar (zararlilik koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, birlashtirilgan koeffitsiyent) — sug'urta (qayta sug'urta) tashkiloti faoliyatining sug'urtaning barcha yoki ayrim turlarini (klasslarini) amalga oshirish chog'idagi zararlilagini aks ettiruvchi nisbiy ko'rsatkichlardir.

Zararlilikni tavsiflovchi koeffitsiyentlarni (zararlilik koeffitsiyentini, xarajatlar koeffitsiyentini, birlashtirilgan koeffitsiyentni) hisob-kitob qilish tartibi vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

58-modda. Moliyaviy hisobotlarni e'lon qilish

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) va sug'urta brokerlari moliyaviy hisobotlarni vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan shaklda e'lon qiladi.

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) va sug'urta brokerlari o'z mablag'lari holatiga, kapitalga doir talablarning bajarilishiga, likvidililikka, tavakkalchiliklarning katta-kichikligiga va boshqa muhim ko'rsatkichlarga (normativlarga) bog'liq bo'lgan axborotni oshkor etishi kerak.

Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining yillik moliyaviy hisoboti auditorlik xulosasisiz e'lon qilinmaydi.

9-bob. Hisobotlar, hujjatlarni saqlash va axborot olish

59-modda. Buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar), sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, qonunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi.

60-modda. Sug'urta faoliyatiga doir hujjatlarni saqlash

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hujjatlarni o'zining idoraviy arxivida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda saqlashi shart.

61-modda. Axborot olish huquqi

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar sug'urta hodisalarining ro'y berishi sabablari hamda holatlarini, shuningdek sug'urta tovoni (sug'urta to'lovi) miqdorlarini sug'urtalovchi va adjaster tomonidan aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborotni hamda hujjatlarni sug'urtalovchilarning va adjasterlarning so'roviga ko'ra taqdim etishi shart.

Vakolatli davlat organi sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarning miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilishga haqli. Bunday axborotni so'rash so'rov sabablari ko'rsatilgan holda yozma tarzda amalga oshirilishi kerak.

Vakolatli davlat organi o'zi olgan axborotga nisbatan maxfiylikka riosa etishi shart, bundan qonunga muvofiq axborotning oshkor qilinishiga yo'l qo'yiladigan hollar mustasno.

62-modda. Sug'urta siri

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar to'g'risidagi, sug'urta qildiruvchilar hamda sug'urtalangan shaxslar sog'lig'inинг holati, sug'urtalangan mol-mulk, sug'urta summasi haqidagi, bank hisobvaraqlarining mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinmaydi.

Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning umumiy shartlari, taklif etilayotgan sug'urta bitimlari va operatsiyalarining ro'yxati, sug'urta tariflari, sug'urta turlari hamda muddatlari ochiq axborot bo'lib, sug'urta siri predmeti bo'lishi mumkin emas.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan ma'lumotlar sug'urta qildiruvchining, shuningdek sug'urtalangan shaxslarning va naf oluvchilarning o'ziga taalluqli ma'lumotlarga doir yozma roziligi asosida uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin.

Sug'urtalovchilar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalarni Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga sug'urta qildiruvchining roziligini olmagan holda, belgilangan tartibda taqdim etadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi va "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlari.

Sug'urtalovchilar ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalarni sudga, prokurorga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mayjud bo'lgan taqdirda esa surishtiruv va tergov organlariga, sudning undiruvni sug'urta qildiruvchining mol-mulkiga qaratish yoki bu mol-mulkni xatlash haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lgan taqdirda, davlat ijrochilariga sug'urta qildiruvchilarning roziligini olmagan holda, belgilangan tartibda taqdim etadi.

Sug'urtalovchilar ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalarni, bundan sug'urta qildiruvchilar va sug'urtalangan shaxslar sog'lig'ining holati to'g'risidagi, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiglari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar mustasno, qonunchilikda majburiy sug'urta bo'yicha belgilangan majburiyatlarning sug'urta qildiruvchilar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tegishli davlat boshqaruvi organlariga sug'urta qildiruvchilarning roziligini olmagan holda, belgilangan tartibda taqdim etadi.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari va amalga oshirilgan hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchi jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda quyidagilarga beriladi:

sug'urta qildiruvchi o'z vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxsga;

sudga va notariusga — ularning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar bo'yicha sudning qarori yoki notariusning o'z muhri bilan tasdiqlangan yozma so'rovi asosida. Notariusning yozma so'roviga sug'urta qildiruvchi vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasi ilova qilingan bo'lishi kerak;

konsulga — uning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar yuzasidan.

Sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирг'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborotni qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-sod qarori bilan tasdiqlangan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирг'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etiladi.

▀ LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 933-moddasi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

63-modda. Sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

Sug'urta xizmatlarining iste'molchilarini sug'urtalovchini va sug'urta xizmatlarini tanlashda erkendir. Sug'urtalovchilar iste'molchining talabiga binoan unga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish

shartlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart.

Sug'urtalovchi shaxsni sug'urta xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanish sharti sifatida sug'urtalovchining yoxud o'zga uchinchi shaxsning boshqa sug'urta xizmatidan yoki mahsulotidan foydalanishga majburlamasligi kerak.

64-modda. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish choralari

Vakolatli davlat organi sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha vazifalarni bajarish uchun quyidagi choralarni ko'radi:

sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibini belgilaydi;

sug'urta tashkilotlari faoliyatidagi ular ko'rsatadigan xizmatlar iste'molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi tizimli kamchiliklarni aniqlaydi, shuningdek ularning oldini olish choralarini ko'radi;

o'z xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga yo'l qo'ygan sug'urta tashkilotlariga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llaydi;

sug'urta tashkilotlari xizmatlari iste'molchilarining buzilgan huquqlarini tiklash borasida maslahatlar beradi va ko'maklashadi;

aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko'radi.

Vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozori to'g'risidagi axborotni aniqlaydi va o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Sug'urta bozori professional ishtirokchilari iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarda o'z faoliyatiga qo'yiladigan talablarga rioya etishini tekshirish uchun vakolatli davlat organi o'z xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni sotib olishi yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshirishga haqli.

Nazorat tadbirlari sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini oldindan xabardor qilmasdan o'tkaziladi.

65-modda. Nizolarni hal etish

Sug'urta faoliyati sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

66-modda. Vakolatli davlat organining qarori ustidan shikoyat qilish

Vakolatli davlat organining qarori va harakatlari ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

67-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolarini, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni va chet el yuridik shaxslarini sug'urta qilish

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslari bilan teng ravishda sug'urta himoyasi huquqidan foydalanadi.

68-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

69-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 358-II-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 68-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 359-II-sonli [Qarori](#)

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 69-modda;

3) O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrda qabul qilingan "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-59-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda) **32-moddasi**;

4) O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-108-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 9, 415-modda);

5) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-156-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 4, 192-modda) **3-moddasi**;

6) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-192-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 635-modda);

7) O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrda qabul qilingan "Jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjalari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-223-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, № 9, 337-modda) **10-moddasi**;

8) O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15 hamda 18-moddalariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi O'RQ-267-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 12, 467-modda);

9) O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-323-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 4, 107-modda);

10) O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-352-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 4, 98-modda) **38-moddasi**;

11) O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjalarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'RQ-355-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 10, 263-modda) **25-moddasi**;

12) O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-373-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 9, 244-modda) **22-moddasi**;

13) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-396-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 12, 452-modda) **22-moddasi**;

14) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjaligiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-

429-sonli Qonuning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 4, 137-modda) **12-moddasi**:

15) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-448-sonli Qonuning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 10, 605-modda) **14-moddasi**;

16) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvarda qabul qilingan "Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg'in quolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-516-sonli Qonuning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 1, 5-modda) **16-moddasi**;

17) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonuning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **137-moddasi**.

70-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtaida tushuntirilishini ta'minlasin.

71-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini gayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

72-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lom qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 23-noyabr,
O'RQ-730-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y, 03/21/730/1089-son)